
Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar Q.Niyoziy ko'chasida joylashgan "Farg'ona olimjon kelajagi" xususiy korxonasiqa qarashli avtoturargoh faoliyati yuzasidan murojaat qilingan.

Avtoturargoh 2015 yil 1 may kuni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan va unga R.Odiljonov rahbarlik qilib kelmoqda. Avtoturargohda nazorat kassa mashinasini o'rnatilgan va to'lov terminali mavjud.

Fuqaro murojaatida qayd etilgan holat yuzasidan tegishli tartibda o'rganishlar olib borildi. Ushbu jarayonda qo'pol muomalada bo'lgan S.Sulaymonovga nisbatan korxonah rahbariyati tomonidan intizomiy jazo chorrasi qo'llanilib, unga nisbatan "hayfsan" e'lon qilindi. Bunday holat boshqa takrorlanmasligi, hududga kirib-chiquvchi haydovchi va boshqa fuqarolar bilan samimiy munosabatda bo'lish, avtoturargoh qonun-qoidalarini to'g'ri tushuntirishlari bo'yicha korxonah rahbariyati tomonidan ko'rsatma berildi.

2020-01-24 18:37:54